



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*Izoh: 2024-yil yanvar-dekabr hamda
2025-yil 1-yanvar holatiga ma'lumotlar
dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha
yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.*



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

(2025-yil 1-yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar)

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra **4 297,5** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **89,0** ming kishiga yoki **2,1** foizga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 570,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,5 %**), qishloq aholisi soni **2 726,9** ming kishi (**63,5 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni


4 297,5 ming kishi

Tabiiy o'sish

+92,1 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




36,5 %

Qishloq





63,5 %


Aholining tabiiy harakati, ming kishi



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (2024-yil yanvar-dekabr)




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni (2025-yil 1-yanvar holatiga)



2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni **34,0 %**, mehnatga layoqatli yoshdagilari **54,8 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalari **11,2 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


(2024-yil 1-yanvar holatiga)



2024-yil 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **270,7 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **72,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **251,4 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **81,2 ming kishini** tashkil etgan.


Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

(2024-yil 1-yanvar holatiga)



2024-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **74,0** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,6** yoshga, ayollar uchun esa **76,3** yoshga teng. Shahar joylari **76,4** yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **71,8** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2025-yil 1-yanvar holatiga)




Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1-yanvar holatiga, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	4 208,5	4 297,5	102,1
Samarqand sh.	585,2	595,8	101,8
Kattaqo'rg'on sh.	94,9	95,9	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	173,2	177,2	102,3
Bulung'ur	202,0	206,9	102,4
Jomboy	189,5	194,1	102,4
Ishtixon	275,9	282,2	102,3
Kattaqo'rg'on	293,8	299,8	102,0
Qo'shrabot	141,9	144,4	101,8
Narpay	227,4	231,6	101,8
Payariq	273,3	279,8	102,4
Pastdarg'om	383,3	392,1	102,3
Paxtachi	152,3	154,5	101,4
Samarqand	272,8	278,6	102,1
Nurobod	162,7	165,8	101,9
Urgut	559,2	572,6	102,4
Toyloq	221,1	226,2	102,3

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi

(2025-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)




Samarqand viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **256,3** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,3** kishiga ortgan (2024-yilda 1 kv.km.ga **251,0** kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9 590,0** kishi, Samarqand shahrida **4 965,0** kishi, Toyloq tumanida **807,9** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobod tumani **34,1** kishi, Qo'shrabot tumani **66,9** kishi, Paxtachi tumani **112,0** kishini tashkil etgan.

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

(1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-dekabr, kishi)

Urgut	16 402	29,0
Samarqand sh.	12 742	21,6
Pastdarg'om	10 379	26,8
Payariq	7 995	28,9
Ishtixon	7 848	28,1
Kattaqo'rg'on	7 771	26,2
Samarqand	6 666	24,2
Toyloq	6 148	27,5
Bulung'ur	5 863	28,7
Narpay	5 568	24,3
Jomboy	5 368	28,0
Oqdaryo	4 630	26,4
Nurobod	4 230	25,8
Paxtachi	3 759	24,5
Qo'shrabot	3 635	25,4
Kattaqo'rg'on sh.	1 861	19,5

Tug'ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart 24 075 bola	
O'g'il bolalar 12 532  52,1 %	Qiz bolalar 11 543  47,9 %
Yanvar-iyun 50 360 bola	
O'g'il bolalar 26 163  52,0 %	Qiz bolalar 24 197  48,0 %
Yanvar-sentabr 83 141 bola	
O'g'il bolalar 43 112  51,9 %	Qiz bolalar 40 029  48,1 %
Yanvar-dekabr 110 865 bola	
O'g'il bolalar 57 449  51,8 %	Qiz bolalar 53 416  48,2 %

2024-yil yanvar-dekabr oylarida **110,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,1** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilda **27,4** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar

2 477



55,5 %

Ayollar

1 986



44,5 %

Yanvar-iyun

Erkaklar

4 970



55,8 %

Ayollar

3 935



44,2 %

Yanvar-sentabr

Erkaklar

7 833



55,5 %

Ayollar

6 268



44,5 %

Yanvar-dekabr

Erkaklar

10 489



55,6 %

Ayollar

8 365



44,4 %


Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-dekabr, kishi)

Samarqand sh.	3 095	5,2
Urgut	2 205	3,9
Pastdarg'om	1 617	4,2
Payariq	1 273	4,6
Kattaqo'rg'on	1 258	4,2
Samarqand	1 253	4,5
Ishtixon	1 141	4,1
Narpay	981	4,3
Bulung'ur	924	4,5
Toyloq	908	4,1
Jomboy	813	4,2
Paxtachi	786	5,1
Oqdaryo	780	4,5
Nurobod	716	4,4
Qo'shrabot	629	4,4
Kattaqo'rg'on sh.	475	5,0

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **18,8** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **4,7** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

(2024-yil yanvar-dekabr, kishi)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 55,1 foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,3 foizi – o'simtalardan, 5,9 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,4 foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 20,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-dekabr, birlik)

Urgut	4 472	7,9
Samarqand sh.	3 636	6,2
Pastdarg'om	3 032	7,8
Kattaqo'rg'on	2 262	7,6
Payariq	2 253	8,1
Ishtixon	2 156	7,7
Samarqand	1 951	7,1
Toyloq	1 809	8,1
Narpay	1 610	7,0
Bulung'ur	1 597	7,8
Jomboy	1 370	7,1
Nurobod	1 326	8,1
Oqdaryo	1 207	6,9
Paxtachi	1 093	7,1
Qo'shrabot	1 009	7,0
Kattaqo'rg'on sh.	642	6,7

Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar

1 670



32,2 %

Qishloq

3 520



67,8 %

Yanvar-iyun

Shahar

3 628



35,6 %

Qishloq

6 569



64,4 %

Yanvar-sentabr

Shahar

7 211



35,2 %

Qishloq

13 288



64,8 %

Yanvar-dekabr

Shahar

10 379



35,2 %

Qishloq


21 046



64,8 %

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **31,4** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **7,7** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-dekabr, birlik)

Samarqand sh.	828	1,4
Pastdarg'om	427	1,1
Urgut	424	0,7
Samarqand	359	1,3
Payariq	328	1,2
Kattaqo'rg'on	286	1,0
Narpay	272	1,2
Ishtixon	244	0,9
Toyloq	233	1,0
Oqdaryo	226	1,3
Paxtachi	220	1,4
Bulung'ur	218	1,1
Jomboy	190	1,0
Kattaqo'rg'on sh.	148	1,6
Qo'shrabot	106	0,7
Nurobod	90	0,5

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar

478



42,2 %

Qishloq

655



57,8 %

Yanvar-iyun

Shahar

1 000



44,2 %

Qishloq

1 265



55,8 %

Yanvar-sentabr

Shahar

1 521



43,8 %

Qishloq

1 954



56,2 %

Yanvar-dekabr

Shahar

1 996



43,4 %

Qishloq


2 603



56,6 %


2024-yil yanvar-dekabr oylarida **4,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan. (2023-yil yanvar-dekabr oylarida **1,1** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi (2024-yil yanvar-dekabr)



2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **47,2** foizi farzandsiz, **26,0** foizi bitta farzand bilan va **26,8** foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **4 599** tani, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni 13 330 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni 16 388 kishini, migratsiya saldosi minus 3 058 kishini tashkil etdi. (2023-yil yanvar-dekabr oylarida minus 4 318 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-dekabr)

(kishi)

	2023-yil			2024-yil		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	10 880	15 198	-4 318	13 330	16 388	-3 058
Samarqand sh.	4 707	2 840	1 867	4 364	3 425	939
Kattaqo'rg'on sh.	450	677	-227	476	879	-403
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	575	549	26	700	529	171
Bulung'ur	366	777	-411	795	835	-40
Jomboy	350	437	-87	463	433	30
Ishtixon	363	1 048	-685	512	897	-385
Kattaqo'rg'on	467	1 035	-568	631	1 162	-531
Qo'shrabot	315	933	-618	421	868	-447
Narpay	292	786	-494	470	894	-424
Payariq	536	1 220	-684	960	1 241	-281
Pastdarg'om	566	877	-311	864	855	9
Paxtachi	417	1 231	-814	601	1 364	-763
Samarqand	767	780	-13	1 256	921	335
Nurobod	133	524	-391	216	604	-388
Urgut	273	1 165	-892	296	1 072	-776
Toyloq	303	319	-16	305	409	-104

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi

Tel: 66-235-72-35